

ABDULLA QODIRIYNING PUBLITSISTIK ASARIDA XALQ SAVIYASINI OSHIRISHDA TEATRNING O'RNI HAQIDAGI FIKRLARI

G'aniyeva Mehrangiz Vohidovna – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Noshirlik va muharrirlik ishi yo'nalishi magistranti
mehrangizganiyeva@gmail.com tel: +998990934680

Annotatsiya: Abdulla Qodiriyning “Bizda teatr ishining borishi” maqolasida yosh avlodning ongini maorif orqali rivojlantirish mumkinligini, katta avlodning dunyoqarashi teatr orqali oshishi haqida gapirib o'tgan. Ammo teatrdan sahnalashtirilayotgan pyesalar saviya jihatdan ancha sayozligi, bu yo'nalishda yosh va iqtidorli dramaturglar kerakligi ta'kidlagan.

Kalit so'zlar: Teatr, dramaturg, komediya, tragediya, satira, tanqid.

“Teatr xalq ongi va qalbini shakllantirishga xizmat qiladi”- degan edi mashhur yozuvchi Viktor Gyogo. Darhaqiqat, teatr o'tmishimiz, bugunimizdagi va kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni, turli hodisalar, tarixiy voqealarni sahnaga olib chiqadi. Uni tomosha qilgan har bir inson, o'zicha tahlil qiladi. Abdulla Qodiriy millat “tarbiyasida” teatrning o'rni beqiyos ekanligini yaxshi tushunardi. Shu sababli, 1919-yil “Ishtirokiyun” gazetasining 239-sonida “Bizda teatr ishining borishi” maqolasini chop ettiradi. Ushbu maqolada teatr bilan bog'liq turli muammolar aks ettirilgan. Maqola quyidagi jumlar bilan boshlanadi.

Ma'lumdirki, bizim Turkistonda drama ham teatrning tarixlari 1912-yildan boshlanib, ularni qabul etkanimizga yetti yillar bo'ladi. 1912-yildan ilgari Turkistonda tatar qarindoshlar tarafidan teatr o'yunlari bo'lub tursa ham tabiiy bizim turmushimizdan chetdaroq bir ruhdagi asarlar o'ldiqdan yerli yoshlarni u darajada o'ziga jalb eta olmag'an, to'g'risi ul vaqtda Turkiston yoshlari juda oz va shu nisbatda she'riy asarlardan yiroq masofada turarlar edi¹⁷⁸.

XIX-XX asrlarda Turkiston hududida teatr san'ati paydo bo'la boshlagan. Uning tashkilotchilari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy bo'lgan. 1911-yil Turkiston hududida ilk drama asarlar sahnalashtirilgan. Masalan, Behbudiyning „Padarkush“ spektakli, „Mahramlar“ nomi bilan mashhur bo'lgan A.Samadovning spektakllarini e'tiborga loyiq asarlar sifatida olish mumkin. “Padarkush” dramasi haqida Qodiriy shunday deydi.

“1912- yildan boshlab «Padarkush» ismida o'z turmushimizdan oling'an teatr risolasi Mahmudxo'ja Behbudiy tarafidan maydonga qo'yilur. «Padarkush» risolasi Turkistonning umuman deyarli har bir katta- kichik shaharlarida mavqi' tomoshaga qo'yilub, yoshlarimiz uchun bir daraja teatru maqsadi onglashilur.”

Qodiriy maqolasida nimaga aynan “Padarkush” dramasi to'xtalib o'tgan. Chunki uning negizida jadidlarning marifatparvalik qarashlari yotadi. Behbudiyning: “Teatr – bu ibratxonadir” degan fikri bor. Ya'ni ilmsizlik, omilik atalmish illatlardan

¹⁷⁸ Qodiriy A. Diyor Bakr — Sharq: 2016.708-b

qutilishning asosiy yo'llaridan biri, "teatr" ekanligiga ishora qilgan. Turkistonda birinchi o'zbek milliy teatri Samarqand shahrida Mahmudxo'ja Behbudiy rahbarligida tashkil etildi. Bu truppada namoyish etilgan ilk asar ham uning "Padarkush" pyesasi edi. Undan so'ng, birin-ketin sahnalashtirilgan spektakllarga Qodiriy shunday fikr biladiradi.

"Mana shundan so'ng bizda teatr masalasi bosh ko'tarub, yarim-yorti teatr risolalari yoza boshlaymiz. Bunday she'riy asarlarni taqlid so'nginda qabul etmak madaniy millatlarning bir qonuni esa-da, bizda birinchidan, bu ishga yangiliq va matbuotsizliqqa, alalxusus bunday nimarsalarni tanqid qilurg'a iqtidorlik munaqqidlarimiz yo'qlig'indan shu ko'yincha qabul etilib, matbuot elagindan o'tquzilmas."

Truppalarda 1912-1917 yillar oralig'ida o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirgan. Teatr sahnalarida Ozarbayjon dramaturglarining asarlari: "Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "O'liklar", "Joy ijaraga olgan kishi", "Man o'lmisham", "Layli va Majnun", "Asli va Qaram"ni o'zbekchaga tarjima qilinib, namoyish etilgan. Shunday yirik sahna asarlari qo'yilgan bo'sada, dramaturgiya bilan bog'liq bir qator muammolar bor edi.¹⁷⁹

- Sahna asarlari saviya jihatidan u qadar yuqori emasligi,
- Yangi sahna asarlarini yozuvchi dramaturglar yetishmasligi,
- Teatr rivojlantirish uchun yetarlicha mablag'ning mavjud emasligi,
- Aktyor va aktrisalarining deyarli yo'qligi.

"Bu hol Turkistonning boshqa go'shalarindan ko'ra bizim Toshkand yoshlari orasinda ko'brak ko'rildi. Bir nechalarini istisno ila, o'z imlosin to'g'rilab yoza olmaganlar, «dramaturg», «komik» hatto «operato'r» ham bo'lib maydonga chiqdilar-da («tragediya»ni yozmag'anlariga shukr qilasan endi!) Toshkandni ola-chipor drama, komediya va operalar ila to'ldirdilar.

Jadid adabiyotida dramaturgiya ya'ni jadid dramasi eng sermahsul va ommabop janr sifatida alohida ko'zga tashlanadi. Jadid g'oyalarining xalqqa yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr san'atining ta'sir ko'rsatishi kuchli bo'ldi. Shuning uchun jadid o'z ijodiy-amaliy faoliyatini drama yozish va teatr bilan bog'liq holda olib bordilar. 1917-yil oktabr to'ntarilishigacha dramaturgiya sohasida o'ttizdan ortiq drama, tragediya, komediya asarlari yozilgan va teatrlarda sahnalashtirilgan. Ammo ularning ko'pchiligi jahon talabiga mos kelmaydigan dramatik asarlar edi.

"Teatr, turmushdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko'z oldimizg'a mujassam etib ko'rsatuvchi bir oynadir. Ish shundog' ekan, biz ham o'z teatruvimizni ko'rganda turmushimizning aksini ko'rmagimiz kerakdir.

Lekin biz o'z sahnamizda shu choqqacha o'zining san'atkoronalig' ila ichiga kiritib yuborib asarlantiraturg'an na bir drama va na bir komediya ko'ramiz. Ammo ko'rdik, ma'attaassuf, na dramalik nomig'a, na komediyalik otig'a muvofiq bir asar uchrata olmadik. Qaysi bir yangi yozilg'an dramasiqa qarama, buzuqliq, sahna uchun xiyonat"

¹⁷⁹ Kun.uz.

O'sha davrda garchi sahna asarlari ko'plab yozilgan bo'lsada, ammo ularning ma'no mazmuni ancha sayoz edi. Negaki, san'atning teatr yo'nalishi Turkistonga ancha kech yetib keldi. Angliyada 1599-yil birinchi "Globus" teatri, Rossiyada 1750-yilda "Imperator" teatri, Turkistonda esa 1911-yilda ilk spektakl sahnalashtirilgan¹⁸⁰.

Teatr sohasi yangi yo'nalish bo'lganligi, unda dramaturglarning yetishmasligi sabab teatr repertuarlarida anchagina kamchiliklar bo'lgan. Ziyolilar orasida chet tilini biluvchilari kamligi sabab jahon dramaturgiyasining nodir namunalarini sahnalastirish ancha muhkul edi. O'sha davrdagi spektakllar o'z janrlariga mos tushmas, maqsadi faqat pul ishlashga qaratilgan bo'lib qoldi.

Komediya, degach nima to'g'ri kelsa shundan kula bermak emas, balki o'zining tub shartiga muvofiq etib kulmak, drama yozg'anda mavzuni turmushimizning naq bir chirik joyidan olmoq va shuning ila barobar adabiyot torozusiga solib yozmoq kerakdir.

Komediya (yunoncha. komodia – xushchaqchaq olomon) – hodisa, voqea va xususiyatlar kulgili ko'rsatilgan drama turi. Komediya ijtimoiy hayotdagi nuqsonlar, kishilarning ongi va xarakteridagi yaramas xususiyatlar kulgi vositasi bilan tanqid etiladi. Abdulla Qodiriy maqolasida aynan komediyaning "jiddiy" bo'lishi kerakligiga alohida urg'u bergan.

Bundan bir necha kunlar muqaddam «To'kma» teatrining buzuvchiligi qarshi chiqq'an «Ishchi» o'ziga bir daraja ko'ngil bog'latg'an edi. Lekin aning ham aytmakda bo'ldig'i tanqidlar yolg'uz sahna kamchiliklari, artistlarning o'yunni buzuvchi o'ynovlari va shunga o'xshash ikkinchi darajadagi o'rinlarni tanqididan narig'a o'tolmadi.

Xorazmda "Xatarli o'yin", "To'kma" tomoshalari keng yoyildi. Farg'ona vodiysi va Toshkentda qiziqchilik va askiya taraqqiy etdi. 19-asrning 2yarmida Qo'qonda Zokir Eshon boshliq 30 ga yaqin qiziqchilar to'dasi, Buxoroda Tula masxara boshliq 20 ga yaqin masxarabozlar to'dasi shuhrat qozondi. Ammo ko'p vaqt o'tmay "To'kma" teatri tanqidga uchradi. Negaki, "unda yengil-yelpi, buzuvchilikni targ'ib qiluvchi tomoshalar qo'yilmoqda"-deb ayblovlar qo'yildi. Ammo "To'kma" teatrining yopilishi bilan dramaturgiyadagi kamchiliklar bartaraf etilib qolmadi. Tomoshalarning saviyasi anchagina past, aktyorlar mahorati ham haminqadar edi.

Menim bu dedigimdan «Sahna va artistlarni tanqid etuv noo'rin emish», degan maqsad onglashilmasun. Albatta, bular ham o'z mavqe'ida teyishli ishlar, lekin demoq istaymanki, keng ma'naviy jihatdan o'ldiqdan ilgari teatr asarlarining asl o'zini umumiy adabiyot o'lchovina solib operasiya qilib chiqish birinchi martaba lozimdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy "Bizda teatr ishining borishi" maqolasi orqali to'g'ri ma'noda tanbeh bermoqchi bo'lgan. U har bir sahna asari "maqsadli" bo'lishi kerakligi, uni tomosha kishi to'g'ri xulosa chiqarishi, o'zidagi kamchiliklarni tuzatishi, bir so'z bilan aytganda "tarbiyalanishini" istagan. Masalan, Behbudiyning "Padarkush" dramasida "O'qimagan bolaning ahvoli qanday bo'lishi ko'rsatilgan holda" yoshlarni ilm olishga targ'ib qilgan bo'lsa, Qodiriyning "Baxtsiz kiyov" dramasida esa ortiqcha sarf-xarajatlar, dabdababozlik insonni baxtsizlik tomon yetaklashi ko'rsatib berilgan.

¹⁸⁰ https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadid_teatrlari.

Adabiyotlar:

1. Qodiriy A. Diyori Bakr. Sharq, 2016.708-b
2. Sanobar To‘laganova. Abdulla Qodiriy: Shaxsiyat va ijod. – Toshkent: 2021. 78-b.
3. Kun.uz.
4. Daryo. Uz.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadid_teatrlari